

Yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2022- yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)

Toshkent shahar bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-mart oylarida 5 211,4 ming so'mni tashkil etdi va buni hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mirobod tumanida 5 894,6 ming so'mni shahardagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **113,1 % tashkil etgan.**

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Yangihayot tumanida 3 383,4 ming so'mni (64,9 %), Bektemir tumanida 4 181,2 ming so'mni (80,2 %), Uchtepa tumanida 4 225,9 ming so'mni (81,1 %) tashkil etib, shahardagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, shahardagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2022- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


Hududlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi,
ming so‘m

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2021- yil yanvar- mart	2022- yil yanvar- mart	O‘sish sur’ati, %
Toshkent shahar	4 235,3	5 211,4	123,0
tumanlar			
Uchtepa	3 546,0	4 225,9	119,2
Bektemir	3 958,4	4 181,2	105,6
Yunusobod	4 869,5	5 791,0	118,9
Mirzo Ulug‘bek	3 985,3	5 070,3	127,2
Mirobod	4 765,4	5 894,6	123,7
Shayxontoxur	4 732,8	5 671,6	119,8
Olmazor	3 501,4	4 258,7	121,6
Sergeli	3 325,9	5 059,1	152,1
Yakkasaroy	4 145,6	5 270,3	127,1
Yashnobod	4 398,6	5 064,8	115,1
Yangihayot	2 135,5	3 383,4	158,4
Chilonzor	3 915,7	5 028,0	128,4


Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-mart, shahar ko'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 861,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ga ko'paygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 768,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,6 % ga ko'paygan.

- **Savdo sohasida** o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 265,2 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ga oshdi.



- **Tashish va saqlashda** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 446,1 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 130,7 % ga oshdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 7 866,5 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 130,4 % ga oshdi.



- **Moliya va sug‘urta** faoliyati sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 10 740,1 ming so‘mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 129,4 % ga oshdi.

- **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 765,1 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ga oshdi.



- **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 691,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,3 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 548,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 125,0 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da.

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Toshkent shahar bo'yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati qurilish sohasida **119,6** %, savdo sohasida **122,0** %, axborot va aloqa sohasida **130,4** %, Moliya va sug'urta sohasida **129,4** %, sanoat sohasida **118,5** %, kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-mart oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda



Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarda Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021-yil sentabr oyidan **822 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 17-avgustdagи PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (71) 203-88-23, (71) 203-88-48